

BOBUR RUHIYATIDA XOJA AHROR VALIYNING TA'SIRI

To'xtayeva Lola Rustam qizi

*BuxDU Adabiyotshunoslik: o'zbek adabiyoti
mutaxassisligi 2-bosqich magistri*

Annotatsiya: Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asarida ko'plab hukmdorlar, davlat arboblarning tasvirini, faoliyatini ko'rishimiz mumkin. Jumladan, Xoja Ahror Valiyning tasvirlarini, ta'riflarini bir necha o'rinda uchratamiz. Shuningdek, ushbu maqolada Zahiriddin Muhammad Bobur ruhiyatida Xoja Ahror Valiyning ta'siri qay darajadali haqida ochib berilgan.

Kalit so'zlar: ruhiyat, davr, davlat, naqshbandiya, tariqat, strategik, islohotchilik, fuqaroparvarlik.

Xoja Ahror Valiy Bobur bilan zamondosh bo'lgan va Bobur bu ulug' zotni o'ziga rahnamo qilib olgan desak yanglishmaymiz. Chunki o'sha davrda Xoja Ahror Valiy tariqatparvarlikdan davlat arbobi darajasiga ko'tarilgan ulug' zotlardan biri bo'lgan. Xoja Ahror Valiyning davlatdorlar bilan o'rnatgan munosabati naqshbandiyaning davlatga munosabat masalasiga yangicha yondashish, unga nisbatan yangi mavqeni egallashiga olib keldi. Boshqacha qilib aytganda, Xoja Ahror Valiy tomonidan ishlab chiqilgan va amalga oshirilgan naqshbandiya faoliyatidagi bu burilish tariqat uchun strategik ahamiyatga ega edi. Naqshbandiya tarixida juda katta siyosiy-ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan bu o'zgarish tariqatda davr taqozosi bilan vujudga kelgan ijobiy hodisa, aniqrog'i, islohotchilik tadbiri edi. Biroq naqshbandiya tarixidagi bu tub o'zgarishni ijobiy hodisa, tariqatdagi islohotchilik amali deb baholash uchun, avvalo, uning yuzaga kelishi sabab va maqsadlarini aniqlash zarurdir. Bu muammoni yechishda Maxdumi A'zam Dahbediyning “Tanbiyat us-salotin” risolasi katta yordam beradi. Xoja Ahror Valiydan keyin XVI asr birinchi yarmida Samarqandda naqshbandiylar tariqatiga rahnamolik qilgan Maxdumi A'zam (1461–1542) mazkur asarida tariqat va davlatning o'zaro munosabatlari haqida batafsil so'z yuritib, tariqatning rivoji podshohlarning unga bo'lgan xayrixohona munosabatiga bog'liq, degan fikrni qayta-qayta uqtiradi. Xoja Ahror Valiydan keyin naqshbandiyaning barcha arboblari uning hukmdorlar bilan hamkorlik qilish zarurligi to'g'risidagi fikrini qabul qilib, unga tariqatning yangi dasturi sifatida amal qilganlar, tariqat va xalq manfaatlarini ko'zlagan holda davlatdorlar bilan yaqin munosabatda bo'lganlar.

Xoja Ahror Valiy tariqat strategiyasining o'zgarishiga olib kelgan bu ilg'or islohotchilik fikrini birdan ko'tarib chiqmagan. Davlatdorlar bilan munosabat o'rnatish zarurligini anglab yetishdan oldin bu muammo ustida ko'p bosh qotirgan,

uzoq va chuqur o'ylagan. Maxdumi A'zam mazkur g'oyaning ilk bor Xoja Ahror Valiy tomonidan ko'tarib chiqilganiga ishora qilish bilan birga, uning og'ir kechganini ta'kidlab yozgan: "Yana ul zot (Xoja Ahror Valiy) aytgan ekanlarki, muncha mulohaza qildim, podsholar madadi, ko'magisiz hech natijaga erishish mumkin emas, demakki, haq subhona va taolo meni podsholar bilan ixtilof qilishga mas'ul qildi". Demak, podsholar bilan munosabatda bo'lib, xalqning og'irini yengil qilish Xoja Ahror butun umr ezgu niyati va doimiy intilishi, uning butun fikr-zikrini band etgan oliyjanob bir istak, irfoniy va ijtimoiy faoliyatining asosiy maqsadi bo'lgan. Maxdumi A'zam Xoja Ahror Valiyning podsholar madadisiz tariqat faoliyatini rivojlantirish mumkin emasligi haqidagi xulosasini sharhlab yozadiki, "Aksariyat xalq nodon va johilligi bois shu toifa (naqshbandiylar) zavq-u holiga munkir bo'lib, ularni hamisha takfir va inkor etib tashvishga solib kelganlar. Ammo agarda podsholar bu toifaga muxlis va e'tiqodmand bo'lsalar, munkirlar hech bir ziyonli ish qila olmaydilar. Agar podsholar bu toifaga e'tiqodsiz bo'lsalar, munkirlar ushbu tariqat toifasiga ko'p yomonliklar qilurlar". Bu o'rinda Xoja Ahror Valiy tarix maydoniga kelgunga qadar, tariqat bilan davlat va rasmiy ruhoniylar o'rtasida davom etib kelgan muxolifatga ishora qilingan. Biroq bu hodisalar boisini u faqat munkirlarning naqshbandiylar "zavq-u holi"ni tushunmaganliklari bilan izohlab, ularning davlatdorlarga nisbatan muxolifatda bo'lganligi va shu boisdan ularning ozor-aziyati va ta'qibiga giriftor bo'lganliklari haqida sukut saqlagan. Vaholanki, Xoja Ahror Valiy tariqatning zarur darajada rivojlanmagani, uning keng yoyilmaganligining ana shu asosiy sababini anglab yetgan holda tariqat va davlat o'rtasida davom etib kelgan ma'lum nizo va kelishmovchilikni bartaraf etishga bel bog'lagan edi. Mutasavvuf bu nizoni tariqat rivoji yo'lida katta g'ov deb bilgan va butun kuch-g'ayrati, faoliyatini ana shu g'ovni bartaraf etishga, hukmdorlar bilan yaqinlashish, ixtilof yo'lini tutish, murosa va hamkorlik qilishga sarflagan. Naqshbandiyaning insonparvarlik ta'limoti ruhida ulg'aygan, hamisha faqir-bechoralar g'ami bilan yashagan Xoja Ahror Valiyning o'z oldiga qo'ygan ulug'vor maqsadlaridan biri podsho va davlat arboblari bilan ixtilofda bo'lish orqali ularni adolat va fuqaroparvarlikka chorlash edi. Mutasavvufning podsholar bilan ixtilofi ana shu maqsadni ro'yobga chiqarish uchun real imkoniyat yaratib berardi. Xoja Ahror Valiy hukmdorlar bilan ixtilofda bo'lar ekan, ularga ta'sir o'tkazib, ularning qalbida fuqaroparvarlik tuyg'usini uyg'otish, ularni fuqarolarga adl-insof bilan munosabat qilishga undamoqchi bo'lgan. Uning o'z oldiga qo'ygan asosiy vazifasi – podsholarni adolat yo'liga undashni sharaf bilan bajargani, butun fikr-zikri va faoliyatini shu maqsadni amalga oshirishga qaratgani ma'lum. Xoja Ahror Valiy va undan keyingi naqshbandiya arboblarning podsholar bilan hamkorlik qilishi hukmdorlarga tariqat peshvolarining aql-zakovati, tadbiri, ularning favqulodda

narsalarga qodir bo'lgan laduniy (botiniy) bilimlaridan mamlakat va xalq manfaatlari uchun foydalanishga yo'l ochib berdi. Demak, Xoja Ahror Valiy aql-zakovatining mahsuli bo'lgan podshohlar bilan munosabatda bo'lish yangi siyosati ham tariqat rivojiga, ham mamlakat va xalq manfaatlariga xizmat qilgan. Xoja Ahror Valiy ochib bergan podshohlar bilan ixtilof yo'li tariqat rivoji va obro'-e'tiborining oshishiga olib kelgan hamda hukmdorlarga ijobiy ta'sir o'tkazish, ularning davlatdorlik faoliyatini fuqarolarga nisbatan adolat mezonini asosida nazorat qilish uchun imkoniyat ochib bergan edi.¹⁵ Bu tadbir Xoja Ahror Valiyning diniy-irfoniy faoliyatiga ijtimoiy tus berdi, tariqat arbobi ulkan jamoat arbobiga aylantirdi.¹⁶ Jumladan, Boburning "Boburnoma" asarida yuqoridagidek, Xoja Ahror Valiyning hukmdorlar bilan aloqasi tasvirlanadi. Uning davlat amaldori darajasiga ko'tarilgani ham bejiz emas. Bobur ko'plab davlat arboblari va ularning sifatlarini yozish davomida Xoja Ahror Valiyning fazilatlarini shunday tasvirlaydi: "Va Mir Darvish Muhammad sorbonkim, Xoja Ahrorni yaxshi muridlaridin erdi, xushshubbat kishi erdi-kim, fazilatdin ul borgohda qurb va e'tibor topib erdi".¹⁷ Ko'rinib turibdi, hatto, Xoja Ahror Valiyning muridlari ham shu qadar e'tibor va martabaga ega inson bo'lgan. Bunga sabab bu ulug' zotning tarbiyalari va ularning muridlariga ko'rsatgan to'g'ri yo'llarining natijasidir. Shogirdning podshoh oldida ulug' martabaga erishishiga sabab ustozning buyuk zot ekanligidadir. Bundan tashqari, saroy muhitida faoliyat ko'rsatgan hokim, vazir -u umarolardan bemaza she'r aytganlari, maddohlik bilan shug'ullangalari ham ko'zga tashlanganki, Bobur Mirzo ularni ayovsiz tanqid qiladi. "Boburnoma"da shunday "mukofot"ga loyiq topilganlardan biri Movorounnahr hukumdori Sulton Mahmud Mirzo edi. Asarda u haqda shunday yoziladi: "Sulton Mahmud Mirzo.. ta'bi nazmi bor edi. Devon tartib qilib edi, vale she'ri bisyor sust va bemaza edi. Andoq she'r aytgandan aytmag'on yaxshiroqdur. Yuraksiz kishi edi".¹⁸ Bu yerda, Bobur Mirzoning sovuq munosabatining ildizlari ancha teran. Ularni faqat she'r bilan aloqador deb bilish to'g'ri emasday ko'rinadi. Bobur Mirzo nafratini qo'zg'atgan omillardan biri Sulton Mahmud Mirzo fe'lidagi e'tiqodsizlik, Xoja Ahror Valiy hazratlariga bepisand munosabat edi. Ishq va e'tiqodi yo'q kimsaning kalomi tuzsiz ovqatday bemazadir. Har bir buyuk insonning bir dushmani bo'lgani kabi Xoja Ahror Valiyning ham shunday dushmanlari borligini ko'rishimiz mumkin.

¹⁵ <https://oyina.uz/uz/article/659>

¹⁶ <https://oyina.uz/uz/article/659>

¹⁷ ЗАХИРИДДИН МУХАММАД БОБУР. УЗБЕКИСТОН ССР ФАНЛАР АКАДЕМИЯСИ НАШРИЁТИ. ТОШКЕНТ.1960. 460-б

¹⁸ РАҲИМ ВОХИДОВ. БИЗ БИЛГАН ВА БИЛМАГАН БОБУР. Адабий ўйлар (Тулдирилган иккинчи нашри) БОБУР ХАЛҚОРО ФОНДИ. 61-б (bundan keyin mazkur manbaga murojaat qilinganda sahifasini qavs ichida berish bilan chegaralanamiz)

Yuqorida aytganimizdek, Xoja naqshbandiya tarqatining peshvolaridan biri bo'lgan va humkmdorlarga ham bu tariqatning ta'siri bo'lgan. Bobur Mirzoning ilohiyotga sidqu sadoqat tasodifiy emas. Shunday xulosani uning naqshbandiya e'tiqodi xususida ham aytish mumkin. "Hayot va taqdir chorrahalarida tang ahvolda qolgan, ruhiy yoxud jismoniy jihatdan nochor holatga tushgan sarkarda yuzni samoga buradi, munojot ila g'aybiy qudratdan madad va rivoj tilaydi. Muhammad qiblasini topadi, sidqiy sajdaga tushadi, peshonasini tabarruk zaminga tekkizib, janobi Rasuli akramning marhamatiga umid bog'laydi. Xoja Ahror Valiyning nuroniy siymosini ko'z oldiga keltirarkan, xazrat bashoratlarining ko'magiga mushtoqligini ma'lum qiladi. Shingil yozuvlarim ro'yo ham, folbinlik ham emas. Ayrimlari aziz zotlarning ruhiy madadi va o'zining jur'atli say-u harkatlari tufayli sharaf tojiga muyassar bo'lgan rostgo'y Bobur Mirzo qalami qoldirgan bitiklarning kafolatidir. Yuksak ma'anaviy xazina "Boburnoma"ni varaqlayman. 935(1528)yil voqealari boburona tantilik ila bayon etilgan".(68-bet) Bobur Mirzo hayotining har zamonida Xoja Ahror Valiyga ehtiyoj sezgan. Boburga ko'plab suiqasdlar qilishadi va ham ruhan, ham jismonan zarar berishadi. Biroq Bobur Mirzo jismiga og'u yetkazgan asorat u bilan birga yashadi. Xoja Ahror asariga murojaat oldidagi xastalik ham o'shandan bir lavhadir. Jismoniy zarba ulug' sarkarda qalbiga, ruhiy olamiga ham ta'sir ko'rsatdi. Uning vujudida ilohiy marhamatdan umidvorlik tuyg'usi yanada teranroq in qurdi. Xojaga bo'lgan sidqu sadoqati orta bordi. Aytilganlar "Volidiya" asarining tug'ilish jarayoniga daxldor lavhalarda oydin namoyon bo'ladi: "...Ushbu niyat bila... risola nazmig'a shuru qildim, ham o'shal kecha o'n uch bayt aytildi. Intizom yo'sunliq, kunda o'n bayttin kamrak aytilmas edi, g'olibo bir kun tark bo'ldi. O'tgan va balki har mahal mundoq orizakim bo'ldi, aqalli bir oy qirq kunga tortti. Tengri inoyati bila hazratning himmatidin panjshanba kuni oyning yigirma to'qquzida andake afsurda bo'ldi, o'zga bu orizadin xalos bo'ldum. Shanba kuni rabbiul avval oyining sekkizida risola so'zlarining nazm qilmoq ixtitomig'a etti. Bir kun ellik ikki bayt aytikdi" (Bir kunda 100 misradan ziyodroq she'r aytish Bobur Mirzo ijodiy tajribasida kam uchraydigan xodisa.) (70-bet) Shunday mo'jizaning yuz berishi ham Xoja Ahror Valiy nomi bilan bog'liqdir. Alqissa, ulug' sarkarda umrining oxirgi yillari tahlikali, paydarpay xastaliklar, ruhiy tebranishlar ila o'tgan bo'lsa-da, ijod bobida serunum bo'ldi. Jumladan "Boburnoma"da shunday yoziladi: "Alalxusus turkiy devoni bordurkim, anda toza mazmunlar topib aytibdur va masnaviy kitobi ham borkim, oti "Mubayyin"dur. Til bilur dono xalq orasida aningdek latoyif yo'qtur. Va Xoja Ahror aytgan risolakim, aning oti "Volidiya"dur, o'shal podshoh nazm qilibtur."¹⁹ Ko'rinib

¹⁹ ЗАХИРИДДИН МУХАММАД БОБУР. УЗБЕКИСТОН ССР ФАНЛАР АКАДЕМИЯСИ НАШРИЁТИ. ТОШКЕНТ.1960. 460-b

turibdiki, Bobur Mirzoning ma'naviy hayotida, ijodida ham Xoja Ahror Valiydek ulug' zotning hissasi ulkan. Bu ulug' zotning siyratidagi yaxshilik izlari hukumdorlarning hayotida, ijodida va balkim butun xalqning turmush tarziga tubdan o'zgartirishlar kiritgan desak yanglishmaymiz. Dunyoviy va diniy ilmning hayotdagi o'rinining naqadar muhim ekanligini va uni o'rgatuvchi ustoz zarurligini Bobur Mirzoning "Boburnoma" asari misolida hamda Xoja Ahror Valiydek ulug' zot siymosida ko'rish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Alisher Navoiy. Nasoyim ul-muhabbat www.ziyouz.com kutubxonasi
2. E.A.Begmatov. O'zbek ismlari ma'nosi.-Toshkent, 2007- 608 -b
3. Nusratullo Jumaxo'ja, Iqboloy Adizova. O'zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: Innovatsion-Ziyo, 2020- 432 -b
4. Rahim Vohidov. Biz bilgan va bilmagan Bobur. Adabiy o'ylar(To'ldirilgan ikkinchi nashr) Bobur Xalqaro fondi-89-b
5. Temur Tuzuklari Forschadan Alixon Sog'unliy va Habibullo Karomatov tarjimasi. -Toshkent 2018,
6. Xurshid Davron. Bobur Mirzo pirlari.Birinchi maqola.Xoja Ubaydulloh Ahror
7. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. –Toshkent: O'qituvchi nashriyoti, 2008. – 288-b
8. Zahiriddin Muhammad Bobur. Mubayyin.-Toshkent 2000, 184